



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
«O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV» AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG'I

2024 yil "22" 11

116 – son

Toshkent shahri

“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati markaziy apparati va tarkibiy bo‘linmalaridagi bo‘sh ish (vakant) o‘rinlariga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazishda tanlov asosida saralab olish to‘g‘risida tartib”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 12-noyabrdagi 02-07/6241-sonli taqdimnomasida ko‘rsatilgan nomuvofiqliklarni bartaraf etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. ““O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati markaziy apparati va tarkibiy bo‘linmalaridagi bo‘sh ish (vakant) o‘rinlariga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazishda tanlov asosida saralab olish to‘g‘risidagi Tartib” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansi.
2. Jamiyatning boshqaruv apparatida ushbu Tartib asosida ish yuritish maqsadida 2-ilovaga muvofiq ishga qabul qilish va boshqa ishga o‘tkazish komissiyasi tuzilsin.
3. Hududiy tarkibiy bo‘linmalarda tegishli mutaxassislardan iborat komissiyalar tuzilsin.
4. Tanlovlarni tashkil etish, e‘lon berish, o‘tkazish va nomzodlarni xabardor qilish Tartibga muvofiq Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi tomonidan amalga oshirilsin.
5. Tanlov davomida savol-javoblar va suhbat jarayonlarini Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida (onlayn) kuzatish imkoniyati taqdim etilishi hamda internet tarmog‘ida bir yil davomida saqlanishi Axborot xizmati bo‘limi hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va axborot xavfsizligi bo‘limi tomonidan ta‘minlansin.
6. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024-yil 12-noyabrdagi 02-07/6241-sonli taqdimnomasi.

Boshqaruv raisi

Sh. Alimov

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJning
2024 yil “22” noyabr dagi
“116” -sonli buyrug‘iga 1-ilova

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati markaziy apparati va
tarkibiy bo‘linmalaridagi bo‘sh ish (vakant) o‘rinlariga ishga qabul qilish,
xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazishda tanlov asosida saralab olish to‘g‘risida**

TARTIB

Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5843-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablari asosida “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati va hududiy tarkibiy bo‘linmalaridagi bo‘sh ish (vakant) o‘rinlariga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazish jarayonida shaffoflikni ta‘minlash, ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur asosida talabgor fuqarolar va tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarining barchasiga teng imkoniyatlardan foydalangan holda saralab olish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib talablari quyidagi lavozimlarga tatbiq etilmaydi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomenklaturasiga kiritilgan;

Texnik, ishchi va xizmat ko‘rsatuvchi toifadagi ish o‘rinlariga.

2. Tanlov “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati va hududiy tarkibiy bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda–Jamiyat) bo‘sh ish (vakant) o‘rinlariga ishga qabul qilish uchun tanlov asosida saralab olish malaka talablariga muvofiq eng munosib nomzodni tanlash maqsadida o‘tkaziladi.

3. Mazkur tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

vakant–(bo‘sh ish o‘rni)–Jamiyatda belgilangan, tegishli malakaga, hujjat hamda guvohnoma (sertifikat) talab etilishi mumkin bo‘lgan bo‘sh lavozim, bo‘sh ish o‘rni;

nomzod–bo‘sh ish o‘rni (vakant)ga ishga kirish uchun Jamiyat yoki tarkibiy bo‘linmalariga elektron tarzda murojaat qilgan jismoniy shaxs yoki mazkur bo‘sh ish o‘rniga ishga kirish xohishini bildirgan tizimda faoliyat yuritayotgan xodim;

tanlov–mazkur tartib talablari asosida o‘tkaziladigan, Jamiyat oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish bo‘yicha talablarga bilimi, malakasi, kasbiy ko‘nikmasi, shaxsiy-psixologik xususiyatlari mosligini aniqlashga qaratilgan, mehnat shartnomasini tuzishdan oldingi holatlar majmui.

4. Tanlov mehnat qonunchiligi hamda mazkur Tartib talablariga asosan amalga oshiriladi.

5. Tanlovda ishtirok etish uchun, qoida tariqasida, davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash xuquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va tegishli ish o'rinlarni egallash uchun malaka talablariga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qo'yiladi.

2-bob. Tanlovni tashkil etish

6. Bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni ishga qabul qilish uchun tanlov o'tkazish maqsadida Jamiyat va hududiy tarkibiy bo'linmalarida tanlov komissiyalari tuziladi.

7. Tanlov komissiyasi tarkibi Jamiyat va hududiy tarkibiy bo'linmalari rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

8. Tanlov komissiyasi tarkibiga quyidagi xodimlar kiritiladi: Jamiyat va hududiy tarkibiy bo'linmalari rahbari, rahbarning muvofiqlashtiruvchi o'rinbosari, kadrlar va ularning malakasini oshirish bo'lim (xizmat) boshliqlari, tanlov o'tkaziladigan bo'sh ish o'rini mavjud bo'lim, uchastka, partiya, sex boshliqlari.

Zaruratga qarab tanlov komissiyasi tarkibiga tanlov o'tkaziladigan bo'sh lavozimning xususiyatidan kelib chiqib, boshqa shaxslar ham kiritilishi mumkin.

9. Tanlovni tashkil etish kadrlar xizmati (keyingi o'rinda – mas'ul kotib) tomonidan amalga oshiriladi.

10. Tanlov komissiyasi tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va suhbat o'tkazadi.

11. Mas'ul kotib tanlovni e'lon qiladi, nomzodlardan hujjatlarni qabul qiladi, savol-javob va suhbat o'tkazilishini tashkil etadi, nomzodlarni tanlov bosqichlarida ishtirok etadi, nomzodni ishga qabul qilinganligi yoki ishga qabul qilishni rad etilganligi to'g'risida xabardor qiladi.

12. Tanlov quyidagi 2 bosqichda o'tkaziladi:

12.1. Bo'sh ish o'rniga **ichki tanlov** bosqichi.

Ichki tanlov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- ichki tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon;
- ichki tanlov uchun hujjatlarni qabul qilish va saralash;
- ichki tanlov uchun nomzodlarni savol-javob sinovlaridan o'tkazish;
- ichki tanlov uchun nomzodlarni suhbatdan o'tkazish;
- ichki tanlov uchun nomzodni ishga qabul qilish yoki rad etish bo'yicha xulosa berish.

12.2. Bo'sh ish o'rinlariga **tashqi tanlov** bosqichi.

Tashqi tanlov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- tashqi tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon;
- tashqi tanlov uchun hujjatlarni qabul qilish va saralash;
- tashqi tanlov uchun nomzodlarni savol-javob sinovlaridan o'tkazish;

- tashqi tanlov uchun nomzodlarni suhbatdan o'tkazish;
- tashqi tanlov uchun nomzodni ishga qabul qilish yoki rad etish bo'yicha xulosa berish.

Ichki tanlovda e'lon qilingan bo'sh ish o'ringa ikki va undan ortiq nomzod ariza bilan murojaat qilmagan yoki ichki tanlov natijasida tanlov g'olibi aniqlanmagan yoki vakant lavozim vujudga kelgan kundan boshlab bir oy mobaynida ichida ichki tanlov e'lon qilinmagan taqdirda, ushbu vakant lavozim bo'yicha tashqi tanlov e'lon qilinadi.

13. Tanlov o'tkazishda oshkoralik va xolislikni ta'minlash maqsadida nomzodning roziligiga asosan uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda audio va videoyozuvi qurilmalaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq barcha (transport xarajatlari, yashash, ovqatlanish va boshqa xizmatlardan foydalanish) harajatlar nomzodning o'z hisobidan qoplanadi.

3-bob. Tanlov o'tkazish to'g'risida e'lonni joylashtirish

14. Tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik tarzda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan foydalangan holda vep-sayt, OAVda va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda (keyingi o'rinlarda – sayt) chiqariladi.

Shu bilan birga, mazkur vakansiyalar bo'yicha e'lon Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi joylashtiriladi.

Ehtiyojdan kelib chiqib davriy nashrlarda joylashtirilishi ham mumkin.

15. Mas'ul kotib vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga o'rnatilgan tartibda joylashtirilishi hamda vakant lavozimni egallash bo'yicha tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lonning ommaviy axborot vositalarida joylashtirilishini ta'minlaydi.

16. Bo'sh ish o'rinlarning ayrim toifalariga tayinlash uchun qo'shimcha talablar mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu lavozimlarga e'lon berishda e'longa qo'shimcha talablar haqida ma'lumot kiritiladi.

17. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha nomzodlarning arizalarini qabul qilish muddati tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 15 ish kunni tashkil qiladi.

Tanlovda ishtirok etish bo'yicha arizalar kelib tushmagan taqdirda, arizalarni qabul qilish muddati avtomatik tarzda 15 ish kunga uzaytiriladi.

18. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha arizalarni qabul qilish faqat nomzodlar tomonidan saytdagi elektron so'rovnomanini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Bunda nomzodga bir vaqtning o'zida uchtdan ortiq bo'lmagan bo'sh ish o'rinini egallash uchun tanlovda ishtirok etish huquqiy beriladi.

Nomzod xohishiga ko'ra, arizaga o'z malakasini tasdiqlovchi diplom, sertifikat va boshqa hujjatlarning elektron nusxalarini ham ilova qilishi mumkin.

Arizalar qabul qilishda nomzodlardan hujjatlar va ularning nusxalarini qog'oz

shaklida talab qilish taqiqlanadi.

19. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha ariza taqdim qilishda yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etilganligi aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish uchun asos hisoblanadi.

20. Tanlov unda ishtirok etish uchun kamida ikkita nomzoddan ariza kelib tushgan taqdirda o'tkaziladi. Tanlovda ishtirok etish uchun bitta ariza kelib tushgan taqdirda, istisno tariqasida, Jamiyat boshqaruv raisi bilan kelishilgan holda, tanlov komissiyasi rahbarining qarori bilan tanlov o'tkazilishi mumkin.

21. Mas'ul kotib tomonidan ariza qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran uch ish kuni mobaynida:

nomzodning taqdim etgan hujjatlarini bo'sh ish o'rinlarini egallash bo'yicha malaka talablarga mosligi o'rganib chiqiladi;

o'rganish natijasida malaka talablariga muvofiq bo'lgan nomzodlar tanlov ishtirokchilari ro'yxatiga kiritiladi, malaka talablariga muvofiq bo'lmagan nomzodlar tanlov ishtirokchilari ro'yxatiga kiritilmaydi va o'rnatilgan tartibda xabardor qilinadi;

nomzodlar ro'yxati tanlov komissiyasiga taqdim qilinadi va tanlov komissiyasi tanlov o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qiladi;

sayt orqali tanlov bosqichi o'tish joyi va vaqti to'g'risida nomzodlarga xabar berilishini ta'minlaydi.

Tanlov unda ishtirok etish bo'yicha arizalar qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab yetti ish kuni ichida o'tkazilishi lozim.

22. Tanlovlarni tashkil etish va o'tkazishda belgilangan qoidaga rioya etmaslik holatlari, shuningdek, tanlov komissiyasining xolis qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazgan noqonuniy xatti-harakatlar aniqlangan taqdirda, Jamiyat markaziy apparati tanlov komissiyasi tomonidan tanlov natijasini to'liq yoki qisman bekor qilish huquqiga ega.

4-bob. Savol-javoblarni o'tkazish tartibi

23. Savol-javoblari nomzodlarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

24. Savol-javoblar (topshiriqlar) Jamiyat va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqiladi va doimiy ravishda yangilab boriladi.

Bunda, savollar Jamiyatning darajasiga muvofiq hamda bo'sh ish o'rnining xususiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi.

25. Savol-javoblari ishchi organ tomonidan alohida bino yoki inshootda yoxud onlayn tarzda tashkil qilinadi. O'tkaziladigan savol-javob (suhbat o'tkazish jarayonlari) tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida (onlayn) kuzatish imkoniyati taqdim etiladi hamda internet tarmog'ida bir yil davomida saqlanadi.

26. Nomzodning savol-javoblar umumiy ko'rsatkichining kamida 55 foiziga teng

ball to'plashi imtihon natijalarini ijobiy deb topish uchun asos bo'ladi.

27. Savol-javoblari natijalari tanlov komissiyasining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va Savol-javoblari o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmasdan saytda e'lon qilinadi.

28. Savol-javoblarini muvaffaqiyatli topshira olmagan nomzodlar ushbu Tartibga muvofiq e'lon qilingan yangi tanlovda qatnashish uchun hujjat topshirishi mumkin.

29. Savol-javoblari o'tkazilishi to'g'risida o'rnatilgan tartibda xabardor qilingan lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar savol-javoblardan o'tmagan hisoblanadi.

4-bob. Suhbat o'tkazish tartibi

30. Suhbat tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Suhbatda tanlov komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

Agar tanlov komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning yaqin qarindoshi bo'lsa, suhbat natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, a'zo o'zini o'zi rad qilish haqida arz berishi shart.

31. Test-sinovlari va suhbat orqali nomzodni baholash uning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlarini bo'sh ish o'rinini egallash bo'yicha malakaviy talablarga mos kelishini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Tanlov komissiyasi a'zolari har bir nomzodga ko'pi bilan beshta savol beradi. Tanlov komissiyasi a'zolari har bir savolga berilgan javobni baholaydi.

32. Har bir nomzod bilan o'tkazilgan suhbat natijalari bo'yicha mazkur Tartibning 1-ilovasiga muvofiq shaklda suhbat varaqasi to'ldiriladi.

33. Tanlov komissiyasining har bir a'zosi suhbat varaqasida quyidagi jummalardan birini tanlash orqali o'z tavsiyalarini ko'rsatadi:

mehnat shartnomasini tuzish tavsiya etiladi;

dastlabki sinov muddati bilan mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etiladi;

mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi.

34. Ishga qabul qilishda ustunlik mehnat shartnomasi tuzish bo'yicha tanlov komissiyasi a'zolarining eng ko'p ijobiy tavsiyalarini olgan nomzodga beriladi va ushbu tartibning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Agar tanlov komissiyasi a'zolarining ijobiy xulosalari teng bo'lsa, tanlov komissiyasi raisi va a'zolari xulosalariga asoslanib yakuniy xulosa beriladi.

35. Jamiyat boshqaruv apparati tanlov komissiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatini shakllantirish bo'limi vakillardan suhbat vaqtida tartib-taomillar tanlovlarni tashkillashtirish va o'tkazish qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish huquqiga ega.

Jamiyat boshqaruv apparati tanlov komissiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatini shakllantirish bo'limi vakillari bayonnomada keltirilgan holatlar bo'yicha

tekshirish o'tkazish va suhbat natijalarini yoki tanlovni butunlay bekor qilish bo'yicha taqdimnoma kiritish huquqiga ega.

36. Nomzodlar tanlov komissiyasi xulosasidan norozi bo'lgan taqdirda xulosa qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddatda tanlov natijalari bo'yicha komissiya xulosasi ustidan Jamiyat boshqaruv raisiga, Jamiyat boshqaruv apparati tanlov komissiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatini shakllantirish bo'limiga, yuqori turuvchi davlat organga yoxud sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Suhbat o'tkazilishi to'g'risida o'rnatilgan tartibda xabardor qilingan lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar suhbatdan o'tmagan hisoblanadi.

37. Tanlov komissiyasining nomzodni ishga qabul qilish bo'yicha tavsiya berilgan kundan e'tiboran belgilangan tartibda bir hafta mobaynida Jamiyat yoki tarkibiy bo'linma rahbari tanlov g'olibi bilan mehnat shartnomasini tuzadi.

38. Agar qonun hujjatlarida bo'sh ish o'rniga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish lozimligi belgilangan bo'lsa, mas'ul kotib uning tegishli hujjatlarini vazirlik yoki idoraga kelishish uchun yuborishi lozim xamda ijobiy javob olingandan so'ng belgilangan tartibda mehnat shartnomasini tuzish choralarini ko'radi.

39. Mas'ul kotib tomonidan uch kunlik muddatda tanlov komissiyasining qarori saytda e'lon qilinadi va tanlov g'olibini ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruq nusxasi ijtimoiy saytlarga joylashtiriladi hamda Jamiyat boshqaruv apparati tanlov komissiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatini shakllantirish bo'limiga yuboriladi.

5-bob. Yakuniy qoida

40. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati markaziy
apparati va tarkibiy bo‘linmalaridagi bo‘sh ish (vakant)
o‘rinlariga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga
o‘tkazishda tanlov asosida saralab olish to‘g‘risidagi tartibga
1-ilova

“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati

S U H B A T V A R A G ‘ I

(suhbat o‘tkaziladigan joy)

20__ yil “__” _____

Ism, familiyasi, otasini ismi	
Tug‘ilgan yili va joyi	
Ma’lumoti	
Diplom bo‘yicha mutaxassisligi	
Amaldagi lavozimi	
Tavsiya etilayotgan lavozim	

Komissiya a‘zosi/ FIO, lavozimi/ _____

Bildirilgan fikr va mulohaza (Tavsiya: mehnat shartnomasini tuzish tavsiya etiladi; dastlabki sinov muddati bilan mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etiladi; mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi)

_____/imzo/

“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati markaziy
apparati va tarkibiy bo‘linmalaridagi bo‘sh ish (vakant)
o‘rinlariga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga
o‘tkazishda tanlov asosida saralab olish to‘g‘risidagi tartibga

2-ilova

Tanlov komissiyasi
BAYoNI

(tanlov o‘tkaziladigan joy)

20__ yil “__” _____

Rais:

Komissiya a‘zolari:

_____	_____
_____	_____

Taklif qilinganlar:

_____	_____
_____	_____

Yig‘ilish kun tartibi:

bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovda. Tanlov komissiyasining xulosasi (qabul qilishning
asoslantirilishi)

Tanlov komissiyasi raisi:

Tanlov komissiyasi a‘zosi:

Tanlov komissiyasi a‘zosi:

Tanlov komissiyasi kotibi:

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJning
2024 yil 22 noyabr dagi
116- sonli buyrug‘iga 2-ilova

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyat boshqaruv apparatiga ishga
qabul qilish va boshqa ishga o‘tkazish tanlov komissiyasi
TARKIBI**

Komissiya raisi:

Boshqaruv raisi

Sh.P. Alimov

Komissiya a‘zolari:

Boshqaruv raisi o‘rinbosari-bosh geolog

E.X.Ergashev

Boshqaruv raisi o‘rinbosari-
bosh muhandis o‘rinbosari

B.N. Eshmurzayev

Departament direktori-kapital ta‘mirlash
va ijtimoiy masalalar bo‘yicha

Y.Sh.Zakirov

Moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar boshqarmasi boshlig‘i

S.M. Kaxarov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

G‘.Y. Chuponov

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘lim boshlig‘i

D.A. Saidaxborov

Kotib: Inson resurslarini boshvarish
va rivojlantirish bo‘lim boshlig‘i

F.A. Umarov

Izoh: Komissiya a‘zolarining birortasi boshqa ishga o‘tgan yoki mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda komissiyaning tarkibiga o‘sha lavozimga yangidan tayinlangan xodimlar kiritiladi. Zarur hollarda komissiya tarkibiga bo‘lim boshliqlari va mutaxassislar kiritiladi.